



Raxmatillo AKBAROV

Namangan davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi, PhD

E-mail: Saidakbar01@mail.ru

Robiya ABDUG'OFUROVA,

Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

TDSHU professori, t.f.d. S.Shadmanova taqrizi asosida

TEMURIYLAR DAVRI MANBALARIDA AMIRZODA SULTON HUSAYN ZIKRI

Аннотация

Mazkur maqolada Temuriylar davri tarixini yorituvchi asosiy yozma manbalar – Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” va Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa’dayn va majmai bahrayn” asarlari asosida Amir Temurning nabirasi Amirzoda Sulton Husayn Mirzoning hayoti va harbiy-siyosiy faoliyati tahlil qilinadi. Unda Sulton Husaynning Temuriylar davlatidagi o’rni, harbiy yurishlardagi ishtiroki, bobosiga nisbatan qilgan xiyonati, keyinchalik ishonchni qayta tiklashi hamda Temur vafotidan so’ng yuz bergan siyosiy kurashlardagi roli yoritilgan. Shuningdek, uning fojiali taqdiri va qatl etilish sabablari tarixiy manbalar asosida ochib berilgan.

Kalit so’zlar: Amirzoda Sulton Husayn, Temuriylar davri, Zafarnoma, Matlai sa’dayn, Amir Temur, siyosiy kurashlar.

УПОМИНАНИЕ АМИРЗОДЫ СУЛТАНА ХУСАЙНА В ИСТОЧНИКАХ ЭПОХИ ТИМУРИДОВ

Аннотация

В данной статье на основе основных письменных источников эпохи Тимуридов – произведений Шарафаддина Али Йазди «Зафарнаме» и Абдурраззака Самарканди «Матлаи саъдайн ва маджмай бахрайн» – рассматривается жизнь и военно-политическая деятельность внука Амира Темура, амирзоды Султана Хусайна Мирзы. Анализируется его участие в военных походах, место в системе власти Тимуридов, измена деду, последующее восстановление доверия, а также роль в борьбе за власть после смерти Амира Темура. Особое внимание уделено причинам его казни и трагическому исходу его политической деятельности.

Ключевые слова: Амيرзода Султан Хусайн, эпоха Тимуридов, Зафарнаме, Матлаи саъдайн, Амир Темура, политическая борьба.

REFERENCES TO AMIRZADA SULTAN HUSAYN IN THE SOURCES OF THE TIMURID PERIOD

Annotation

This article examines the life and military-political activities of Amirzoda Sultan Husayn Mirza, the grandson of Amir Timur, based on the principal Timurid historical sources – Sharaf al-Din Ali Yazdi’s Zafarnama and Abd al-Razzaq Samarqandi’s Matla’ al-sa’dayn va majmai al-bahrayn. The study analyzes Sultan Husayn’s role in the Timurid state, his participation in military campaigns, his betrayal of Amir Timur, the restoration of royal favor, and his involvement in the political struggles following Timur’s death. The article also explores the reasons for his execution and the tragic outcome of his political career through a comparative analysis of historical sources.

Key words: Amirzoda Sultan Husayn, Timurid period, Zafarnama, Matla’ al-sa’dayn, Amir Timur, political struggle.

Kirish. Sulton Husayn mirzo Amir Temurning qizi O’g’i begim (Tog’ayshoh begim) va taychiud qabilasidan bo’lgan Muhammad Musalarning farzandi bo’lib, uning hayoti va faoliyat tarixi temuriylar davriga oid tarixshunoslik kitoblarida juda kam ma’lumot beriladi. Vaholanki, Sohibqiron Amir Temurning vafot etishi bilan temuriy shahzodalar o’rtasida boshlangan taht uchun kurashlarning boshlanishida aynan mana shu shahzoda muhim rol o’ynagan edi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Amirzoda Sulton Husayn haqidagi ma’lumotlar Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” [1], G’iyosiddin Ali Yazdiyning “Ro’znomai g’azovoti Hindiston” [2], Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlayi sad’ayn va majmayi bahrayn” [3] asarlarida keltirib o’tilgan. Sulton Husayn Mirzo haqida Turg’un Fayziyevning “Temuriylar shajarasi” [4] nomli kitobida qisqacha tarzda bayon qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada Amir Temurning nabirasi bo’lgan amirzoda Sulton Husayn mirzoning hayoti va faoliyati tarixi sohaga oid materiallarni sinxron, muammoviy-xronologik, qiyosiy-tarixiy usullarga tayangan holda tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar. Sharafiddin Ali Yazdiy Sulton Husaynni “Zafarnoma”da ilk bor Amir Temurning 795 (milodiy 1392) yilda Mozandarinni fath qilganligi haqidagi voqealarni bayon qilishda tilga oladi va: “Mazondaron viloyati barcha musahhar bo’lg’ondin so’ng sohibqiron fathnomalar bitturub, yaxshi bo’lak bilan o’g’lonlariga yibardi. Va o’gli amirzoda Shohrux bilan nabiralarikim, amirzoda Xalil va amirzoda Rustam va Sulton Husaynkim, hazratning qizidin erdi, va mirzo Mironshohning qizini va mahdi a’lo Saroy Mulk xonim va Tuman og’o va o’zga og’olarni kelturg’ali kishi yibardi.” deydi. [1]

Sharafiddin Ali Yazdiy Amir Temurning vafot etganidan so’ng boshlangan voqealarni bayon qilar ekan, “... Amirzoda Sulton Husayn kim, Sohibqironning qizidan erdi va Muhammadbek ibn Musaning o’g’li edi; u mahalda yigirma besh yoshda edi” – deydi[1]. Demak, Sulton Husayn 1405-yilda 25 yoshda bo’lsa, 1380-yilda tug’ilgan bo’lib chiqadi.

“Zafarnoma”da Sulton Husaynning harbiy boshliq sifatida Amir Temurning turli hududlarda olib borgan yurishlarida qatnashganligi to’g’risida ma’lumotlar mavjud.

Jumladan, Yazdiy 798 (milodiy 1396)-yil voqealarini bayon qilib, Nehovand* nomli hududga hokim qilib Temur

tomonidan Mazid Barlos ismli kishi tayinlanganligi, ammo u o'z navkarlaridan biri Bahlul tomonidan o'ldirilib, u shaharni egallab olganligi haqida yozadi. Asarda keltirilishicha Bahlulni jazolash uchun Amir Temur nabirasi Sulton Husayn va beklardan Xudoydodi Husayniyni yuboradi. Ular tomonidan shahar qayta egallanib, Bahlul o'ldiriladi [1].

Sharafiddin Ali Yazdiy Amir Temurning buyruqlari asosida Hindiston sari boshlangan yurish tayyorgarliklarini tasvirlar ekan, qo'shinning chap qanotida Sulton Mahmud boshchiligidagi harakat qiladigan Amirzoda Sulton Husayn, Amirzoda Rustam, Jahanshohbek, G'iyosuddin Tarxon, Hamza Tag'ay Bug'a Barlos, Amir Shayx Arslon, Sevinchak Bahodur, Mubashshir va boshqalarning nomlarini sanab o'tadi [1]. G'iyosiddin Alining "Ro'znomai g'azovoti Hindiston" asarida ham Sulton Husayn qo'shinning chap qanotiga birlashtirilganligi qayd etilgan[2].

1398-yilning 17-dekabrda bo'lib o'tgan yirik janglardan birida Sulton Husayn Jahonshoh Bahodir va G'iyosiddin Tarxonlar bilan birga Dehli sultonligi qo'shinining Malik Muayyididdin va Malik Hotiy boshchiligidagi qismini mag'lubiyatga uchratgan [1].

Amir Temur Dehli shahrini egallagandan so'ng, Kubla deb atalgan daradagi bir guruh boshqa dinga e'tiqod qiluvchi hindlarni mag'lub qilib orqaga qaytmoqchi bo'lganda Suvalak nomli tog'da gabrlar va tutarlar deb nomlangan xalqlar jang uchun to'plangan xabari olinadi. Ularga Bahroz ismli kishi yetakchilik qilgan.

1399-yil 18-yanvarda mazkur tog'ga hujum qilinib, chap qanotning xirovul (oldingi qismi)ga Amirzoda Sulton Husayn va Jahonshohbeklar boshchilik qilgan va katta o'ljalor qo'lga kiritilgan [1].

Sharafiddin Ali Yazdiy 1400-yil oktabr voqealarini bayon qilar ekan, Xalab shahri va qal'asini egallash uchun qilingan janglarda ham qo'shinning chap qanotida Amirzoda Sulton Husayn ismini qayd etadi [1].

Ammo, Amir Temurning Shom (Suriya)ga qilgan yurishida Sulton Husayn bobosiga hiyonat qilib, dushman tomonga o'tib ketadi. Bu haqida "Zafarnoma"da: "Amirzoda Sulton Husaynning ko'ngli Jahonshohbekdin qachib, xotir mululluq bo'lub, bir jamoat mufsid tojiklar bila ittifoq qilib, yuzini davlatdin qaytarib qochib, Damashq shahriga kirdi. Shomiyarlarga ul holatdin shodmonliq paydo bo'lub, shahzodani yuz tajammul bilan shaharga kiyurdilar" – deb yozadi [1].

Endi damashqliklar tomonida turib jangga kirgan Sulton Husayn Mironshoh va Shohrux qo'shinlari bilan to'qnash keladi va urushda Toploq Qavchin tomonidan ushlanib, Shohrux mirzo huzuriga olib kelinadi. Amir Temur uni qamoqqa olishni buyuradi. Oradan bir necha kun o'tgach, shahzoda Shohrux Sulton Husayn uchun kechirim so'rab, uning aybini yengillashtirishni iltimos qiladi. Natijada, Sulton Husaynga yasoq tayoqi bilan jazo berildi. Mazkur voqeadan so'ng ancha vaqtgacha Amir Temur uni o'zidan yiroqlashtirgan [1].

1401-yil mart oyida Amir Temur Sulton Husaynga yana ishonch bildirib, u va Amir Burunduqqa 5 ming kishilik qo'shinga boshchilik qilib Antakiyani* egallash topshirig'ini beradi [1]. Aynan mana shu topshiriqda ko'rsatgan jasorati uchun Sulton Husayn yo'qotgan obro'sini tiklab olgan. Bu haqida "Zafarnoma"da: "Amirzoda Sulton Husayn bu yurishda yaxshi ishlar qilib erdi, Sohobqiron gunohidan kechib, ko'runish berdi va anga ko'p inoyatlar qildi." – deyiladi[1].

Amir Temur Kichik Osiyodagi Mardin* shahridan ko'chgach, nabiralari Sulton Husayn va Pir Muhammad Umarshayx va Abo Bakr hamda amirlardan Jahonshoh va Temur Xojai Oq Bug'a va Sayyid Xojai Shayx Ali Bahodur va boshqalarni avval Alanchuqni, keyin esa Gurji (Gurjiston) tomonga yurish qilishni buyurgan[1].

Anado'lining sharqiy qismida joylashgan eng mustahkam qal'alardan biri bo'lgan Kamox qal'asini egallash ishi valiahd shahzoda Muhammad Sultonga topshirilib, unga madad sifatida shahzodalardan Abo Bakr, Xalil Sulton, Sulton Husayn, Iskandar hamda amirlardan Jahonshohbek, Shayx Nuriddin va Buyundukbeklarni yuborgan[1].

Anqara jangida Yazdiy Amir Temurning qo'shin joylashtirish tartibi va unga rahbarlik qilgan sarkardalar haqida batafsil bayon qilar ekan, burong'or ya'ni qo'shinning o'ng qanotiga rahbarlik Shohrux Mirzo va Xalil Sultonga topshirilgani, o'ng qanotning qanbuliga* esa, Sulton Husayn, Ali Sulton va Musa To'y tayin qilingani haqida yozadi [1].

Anqara jangidagi g'alabadan so'ng Amirzoda Sulton Husayn va Amirzoda Iskandar va Sulaymonshohbek va Rustam Tag'ay Bug'a va Sayyid Xojai Shayx Ali Bahodur va Pir Ali Sulduz va boshqa beklar Ko'niya va Oqshahr va Qaro Hisor va Alaniya va Adaliyani egallash uchun yuboriladi [1].

Yeti yillik yurishdan Samarqandga qaytgan Amir Temur ko'p o'tmay Xitoy yurishiga o'tlanadi. Sulton Husaynni chap qanotdagi amirlarga yetakchi qilib belgilab, Yassi va Sabronda qishlashni buyurgan[1].

Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha Amir Temur O'trotda vafot etganda bek va amirlar Xitoyga yurishni davom ettirishni maslahat qiladilar. Lekin, bobosining vafotidan xabar topgan Sulton Husayn qo'shinning chap qanotidan ajralib, o'ziga sodiq 2000 kishi bilan Samarqandni egallash uchun yo'lga chiqadi [1].

Bundan xabar topgan Amirzoda Ahmad Umarshayx va amirlardan Xudoydodi Husayniy, Yodgorshoh Arlot, Shamsuddin Abbos va Burunduqbek va boshqalar Amirzoda Xalil Sultonni podshoh qilib ko'targanlar[1]. Shu bilan 35 yil davomida uzluksiz yurishlar natijasida qurilgan ulkan imperiyaning parchalanishiga yo'l ochgan toju-taxt uchun kurashlar boshlanib ketadi.

Sulton Husayning bundan keyingi taqdiri haqida aniq ma'lumotlarni Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sa'dayn va majmai bahrayn" asaridan topamiz. Muallif asarning "Xurosonda voqe bo'lgan kechmishlar, Mirzo Sulton Husaynning qatli etilishi zikri" deb nomlangan qismida Sulton Husayn haqida: "U bir bahodir yigit bo'lsa-da, lekin bag'oyat buzuqi va beoqibat edi" – deb yoziladi.

Asarda keltirilishicha, Samarqand tahtini Halil Sulton egallagach, Sulton Husayn Shohrux Mirzoning huzuriga kelgan va juda yaxshi kutib olingan. Shohrux Mirzo Hirotdan Samarqandga tomon yurish boshlab, Amudaryo bo'yiga yetib kelganda, Xalil Sulton unga maktub yuborib, amakisini hukmdor sifatida tan olishini va Samarqandda uning noibi sifatida hukmronlik qilishini bildirgan. Shundan so'ng Shohrux yurishni bekor qilib orqasiga qaytgan. Andhud degan joyda Sulton Husayn Shohruxning huzuridan qochib ketgan va Kesh atrofida turgan Halil Sulton huzuriga borgan va uning ishonchini qozongan[3]. Balki u Xalil Sultonni yo'q qilib Samarqand tahtini menga olib beradi degan umid bilan Shohrux mirzo huzuriga borgan, lekin ikki o'rtada urush kelib chiqmagach hafsalasi pir bo'lib, yana Xalil Sultonning huzuriga ketishdan boshqa chora topmagandir.

Halil Sulton Sulton Husaynni Pir Muhammadga qarshi amir Ollohdod, amir Arg'unshoh, Temurxoja va Xoja Yusufarga bosh qilib Balxga yuborgan. Shunda Sulton Husaynning xayoliga o'ziga berilgan katta qo'shin yordamida Samarqandni egallash fikri keladi. Buning uchun qo'shin yetakchilarini o'z tomoniga og'dirishi kerak edi. Shu maqsadda u amirlarni o'z chodiriga chaqirib, ularni oyoq-qo'lini bog'lashni buyuradi. Amir Temurxoja, Xoja Yusufarni qatl ettiradi. Qolgan amirlar – amir Ollohdod, amir Arg'unshoh, Mubashshir va Saodatlar voqeani ko'rib, Sulton Husaynga xizmat qilishga rozi bo'lishadi.

Shu vaqtlarda Muhammad Sultonning harami bo'lmish Xonika begim Samarqanddan Balxga, mirzo Pir

Muhammad huzuriga kelayotgan edi. Sulton Husayn uni talon-taroj qilib, mol-mulk va zeb-ziynatlarni olib navkarlarga ulashdi. So'ngra u Samarqand tomonga otladi. Halil Sulton buni eshitgach, Sulton Husayn tomonga qarshi qo'shin tortdi. Ikki o'rtada Kesh atrofida joylashgan Jigdolik mavzeida to'qnashuv bo'ladi. Jang boshlanmasidan amir Ollohdod, amir Arg'unshoh va boshqa amirlar Halil Sulton tarafiga o'tib ketadilar. Bu voqea 808-yil muharram oyining sakkizinchisida, milodiy 1405-yil 6-iyulda sodir bo'ladi.

Mag'lubiyatga uchragan Sulton Husayn Mirzo Andhud* va Shibirg'on* atrofida turgan amir Sulaymonshohga kelib qo'shilib, u bilan ittifoq tuzgan. Mirzo Pir Muhammad amir Sulaymonshohga xat yuborib, Sulton Husaynning qilgan xatti-harakatlarini sanab: "Sulton Husayn mening dushmanim, uni tutib mening oldimga yubor", – deydi. Talabi bajarilmagach, Mirzo Pir Muhammad ularga qarshi qo'shin yuborgan. Bas kelishiga ko'zi yetmagan Mirzo Sulton Husayn va amir Sulaymonshoh Hirotg, ya'ni Shohruh Mirzo huzuriga qochadi.

Shohruh Mirzo Saraxs* viloyatini amir Sulaymonshohga suyurg'ol qilib berdi. Sulton Husayn haqidagi muhokamada davlat arboblari bilan maslahat asosida Sohibqiron tirikligida ham Samarqandda va yana Shomda isyon ko'targani, Amir Temurning vafotidan keyin fitna-

fasodga berilgani, Shohruh Mirzoning o'rdasidan yuz o'girib Halil Sulton huzuriga borgani, uning amirlarini o'ldirib, Xonikaning mol-mulkini talaganini hisobga olib, bunday odamdan kelajakda katta fitna chiqishi mumkin deb hisoblandi va qatl qilishga buyruq berildi. Sulton Husayn Mirzo amirlardan Nushirvon Barlos tomonidan Hirotning Iroq darvozasi tashqarisida qatl etildi[3].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Amirzoda Sulton Husayn Mirzo Temuriylar davrining murakkab va ziddiyatli siyosiy muhitini yaqqol aks ettiruvchi tarixiy shaxsdir. Uning faoliyati harbiy jasorat va siyosiy beqarorlik uyg'unligi bilan ajralib turadi. Dastlab Amir Temur ishonchini qozongan holda yirik harbiy yurishlarda faol ishtirok etgan Sulton Husayn keyinchalik xiyonati sababli obro'sidan ayriladi. Biroq, keyingi xizmatlari evaziga yana e'tibor qozonishi Temuriylar davlatida shaxsiy sadoqat va xizmatning muhim o'rin tutganini ko'rsatadi. Amir Temur vafotidan keyingi taxt uchun kurashlar jarayonida Sulton Husaynning harakatlari esa markaziy hokimiyatning zaiflashuvi va imperiyaning parchalanishiga olib kelgan omillardan biri bo'ldi. Uning qatl etilishi Temuriylar sulolasida ichki nizolar qanchalik keskin bo'lganini ko'rsatib beruvchi muhim tarixiy saboqdir.

ADABIYOTLAR

1. Шарафуддун Али Йаздий. Зафарнома (Масъул муҳаррир: Б. Эшпўлатов). – Т.: Шарк, 1997. – 384 б.
2. Гиясадин Али. Дневник похода Тимура в Индию / Пер. с перс., предисл. и примеч. А. А. Семенова. – М.: Издательство восточной литературы, 1958. – 208 с.
3. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. Масъул муҳаррирлар: А. Қаюмов, Муҳаммад Али. – Т.: "O'zbekiston", 2008. Ж. II, Қ. 1: 1405 – 1429 йил воқеалари. – 632 б.
4. Файзиев Т. Темурийлар шажараси. - Тошкент: Ёзувчи, 1994. - 352 бет.